



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning

20__-20__-o'quv yilida
8-sinflar uchun ona tili fanidan
I chorak

DARS
ISHLANMALAR

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 8-sinf ona tili fanidan I chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Kirish suhbatı.“Sangardak qo‘shig‘i” matni bilan ishlash	1		
2.	Adabiy nutq me'yorlari. Nutqning ko‘rinishlari	1		
3.	Mustaqil so‘z turkumlari. “Bu uyda O‘zbekiston yashayapti” matni bilan ishlash	1		
4.	Yordamchi so‘z turkumlari	1		
5.	Undov, modal, taqlid so‘zlar. Audiomatn “Abdulla Oripovning “Vatan” she‘ri”	1		
6.	Olmoshlarning ma'no turlari	1		
7.	Ravishning ma'no turlari. Infografikalar bilan ishlash	1		
8.	BSB-1. Savol va topshiriqlar ustida ishlash. (25 ball)	1		
9.	BSB tahlili. “Ona yurtim - O‘zbekiston!” mavzusida loyiha ishi	1		
10.	Ma'lumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matn. “Qadriyat” matni bilan ishlash	1		
11.	Insho - ijodiy ish	1		
12.	Inshoning mavzu va mazmuniga ko‘ra turlari	1		
13.	Insho rejasi. “Bu diyorning ayvonlari nurga talosh” mavzusi bilan ishlash.	1		
14.	Sodda va murakkab rejalar	1		
15.	Adabiy mavzulardagi insholar	1		
16.	Erkin mavzulardagi insholar	1		
17.	Inshoga epigraf tanlash. “Insonlarning dard-u tashvishlarini O‘ylab yashash - odamiylikning eng oliy mezonı” audiomatni bilan ishlash.	1		
18.	Ilmiy insho. “Ertakning o‘tmishi” mavzusi bilan ishlash.	1		
19.	Mustahkamlash darsi	1		
20.	2-BSB. Insho (25 ball)	1		
21.	BSB tahlili	1		
22.	Sintaksis haqida umumiy tushuncha. “So‘zning tuzi nimada?” matni ustida ishlash	1		
23.	Teng bog‘lanish va tobe bog‘lanish	1		
24.	So‘z birikmasi va so‘zlar qo‘shilmasi. Qo‘shma so‘z	1		
25.	Mumtoz matn va lug‘atlar bilan ishlash	1		
26.	1-CHSB (40 ball)	1		
27.	“Eng ta'sirchan va chiroyli nutq” tanlovi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Kirish suhbat. “Sangardak qo‘shig‘i” matni bilan ishlash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– eshitilgan yoki o‘qilgan matnlardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi :

– doimiy ravishda mustaqil o‘qib-o‘rganish, bilimni oshirib borish, kognitivlik (ijodiylik) ko‘nikmasini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

SANGARDAK QO‘SHIG‘I

Bu bolaning o‘yindan boshqa o‘yi yo‘q edi. Maktabdan kela solib, ovqat ham yemasdan, onasining ko‘zini shamg‘alat qilib, qo‘lbola o‘q-yoy olganча tutzorga oshiqardi. Bo‘lmaganda uchta qushning sho‘rini quritar, keyin o‘rtoqlariga qilgan “qahramonligi” haqida uzoq maqtanardi. Bir kuni chiroyli qushning ko‘zini nishonga oldi. Xayolida ming bitta o‘y. Shu payt kutilmaganda kimdir kelib qoldi. Bola o‘girilib qarasa, Olim sinfdoshining otasi ekan.



Lining ko'zlari g'azabdan yonib shunday dedi:

- Otagga ayt, otalik qo'lidan kelmabdi...


Bola qishloqni boshiga ko'tarib yig'lagancha uyi tomon chopdi. Bor gapni piqillab aytayotgandi, bir mahal otasi o'midan irg'ib turib, bog' tomon o'tib ketdi. Bola: "Meni jazolaganing uchun adabingni yeysan", - deb pichirladi. Ammo otasi qaytib kelib, uni bu ishi uchun qattiq koyidi. Bola o'sha voqea sababini tushunib yetguncha yigirma besh yil yashadi. Ocscha tanbeh sabab qush-ku qush, chumoliga ham ozor bermaydigan bo'lib ulg'aydi-da. Mening Sangardagimda "bu - sening bolang", "bu - men ing bolam" degan tushuncha yo'q. Yaxshi bo'lsa, boshiga ko'taradi, sho'x bolsa, haddidan ohsa, tanbeh bilan tarbiyalab qo'yadi. Sangardak odamlarining dilida g'ayrat, qo'lida qudrat bor. Ular ko'z ochib yumguncha toshloq joydan ham bog' barpo eta oladi. Bog'ning tashvishi esa ularning sochidan-da, yuzidagi ajinidan-da ko'p. Ammo quvonchi barchasidan bisyor. Odamlarning bir-biriga qilgan hazillari... Deydilarki, bir to'yda oshpazga guruch yoqmabdi.

- Bor, mening do'konimdan ikki qop guruch olib kel. Pulini topganda berasan, - debdi oshpaz. To'y egasi ko'rinishidan soddagina bo'lsa-da, ancha pishiq ekan. Ukasini chaqirib:


- Guruchni mashinaga ortgin-u ko'chani bir aylanib kel. Keyin oshpazga uyingizdan opkeldim, degin, - debdi. Uka akaning aytganini qiladi. Guruch xaltani ochgan oshpaz:

- Mana, bu endi guruchning zo'ri, - deb ishni boshlab yuboribdi. Oshpaz hammasini bilganini, lekin to'y egasining xursandchiligi uchun qilgan hazilidan izza bolmasin deb shunday deganini oradan ancha vaqt o'tib aytganiga nima deysiz? Ha, ular hazilniyam, xizmatniyam qotiradi...

1. Oshpazga berilgan sifatlarni matn asosida aniqlang. Daftaringizga bir nechta javobni belgilashingiz mumkin. Har birini matn asosida izohlang.



2. Muallifning matnni yaratishdan ko'zlagan asosiy maqsadi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Matnda qishloq odamlarining qaysi xususiyatlari tilga olingan?
2. Nima uchun bola chumoliga ham ozor bermaydigan inson bo'lib ulg'aydi?
3. Muallifning oshpaz bilan bog'liq voqeani matnga kiritishdan maqsadi nima?
4. Inson yashab turgan maskaniga bo'lgan mehri bilan butun mamlakatni sevishga qodirligini, ammo buni o'zi ham sezmasligini qanday izohlaysiz?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Matnning qiya yozuvda ajratib ko'rsatilgan qismini qayta o'qing. So'ng quyida berilgan jumlaning davom ettirib yozing va o'qituvchingizga taqdim eting. Fikringizni ifodalashda iqtibos, hayotiy voqea va dalillardan foydalaning. Men qishlog'im/shahrimni yaxshi ko'raman. Chunki...

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Adabiy nutq me'yorlari. Nutqning ko'rinishlari

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

– mavzu doirasida berilgan matnlar mazmuni orqali milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

– dars va mashg'ulot jarayonlarida faol ishtirok etish;

– o'zining fuqarolik burchlarini bilish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Matndan kelishiklarning qo'llanishiga oid bittadan misol topib, uchinchi ustunga namunadagidek yozing.

Kelishik nomi	Qo'shimchasi	Misollar
Bosh kelishik	-	***
Qaratqich kelishigi	-ning	***
Tushum kelishigi	-ni	<i>mamlakatni sevish</i>
Jo'nalish kelishigi	-ga (-ka, -qa)	***
O'rin-payt kelishigi	-da	***
Chiqish kelishigi	-dan	***

Soʻz tarkibi asos va qoʻshimcha(lar)dan iborat. Asos quyidagi xususiyatlarga ega:

a) soʻzning oʻzak maʼnosini ifodalaydi;

b) mustaqil qoʻllana oladi;

d) yasalish uchun asos vazifasini bajaradi.

Qoʻshimchalar quyidagi xususiyatlarga ega:

a) mustaqil qoʻllana olmaydi;

b) asosga qoʻshilib, unga yangi yoki qoʻshimcha maʼno beradi;

d) soʻzlarni bogʻlashga xizmat qiladi.

Qoʻshimcha va koʻmakchilar bajaradigan vazifani quyidagi jadval asosida moslashtiring.

1	yurt haqida oʻylamoq, uy tomon ketmoq	A	Soʻzga qoʻshilib, unga qoʻshimcha maʼno yuklagan.
2	mahallani aylanmoq, uyga qaytmoq	B	Asosga qoʻshilib, yangi maʼno hosil qilgan.
3	mening yurtim, sevimli mashgʻulotingiz	D	Bir soʻzni ikkinchi soʻzga koʻmakchi orqali bogʻlagan.
4	gulzor, elparvar	E	Bir soʻzni ikkinchi soʻzga egalik qoʻshimchasi orqali bogʻlagan.
5	biz boramiz, uydan chiqaman	F	Bir soʻzni ikkinchi soʻzga tushum va joʻnalish kelishigi orqali bogʻlagan.
6	odamlar, uycha	G	Harakat orqali uning bajaruvchisini aniqlashga xizmat qilgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Qoʻshimchalar qoʻllanishi bilan bogʻliq xatolarni toʻgʻrilab, koʻchiring.

mahallani guzari, darsning soʻnggi, uyni tomi, soʻngi qaror, koʻchalarni tozalanadi, koʻchat ekgani kelmoq, yomgʻir yoqqanda, quyosh chiqgach, issiqgina palov, odamlar hasharda qatnashdi, oʻn nafar bolalar, koʻpchilik qatnashdilar, kitobni oʻqilishi, gap uqdirmoq, xalq sayillari

V. Darsni yakunlash: oʻquvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: Quyidagi soʻzlarni jadval asosida guruhlab yozing.

bilak//uzuk, tosh//oyna, uy//uyiga, baland//parvoz, koʻz//oynak, sotib//olmoq, alla//qachon, xom//semiz, don//dun, besh//kokil, shirin//soʻz, ich//ichidan, shu//yerga, jigar//rang, sotib//oldi, kuppaa//kunduzi, shaharlar//aro, umum//davlat, oʻrin//bosar, dam//badam, ish//yoqmas, ayta// oladi, gʻayrat//qilmoq, koʻchama//koʻcha, Yakka//saroy, Olti//ariq, radio//markaz, yangidan// yangi, osma//koʻprik, toʻq//qizil, bir//muncha, bira//toʻla, gul//beor, dardi//sar, qay//kuni

Qoʻshib yoziladigan soʻzlar	Ajratib yoziladigan soʻzlar	Chiziqcha bilan yoziladigan soʻzlar
***	***	***

OʻIBDOʻ: _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

59 listdan iborat ona tili fanidan 8-sinf I chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**